

RIVOJLANISHDA NUQSONI BO'LGAN TARBIYALANUVCHILARGA  
TA'LIM-TARBIYA BERISHDA ULARNI IJTIMOIIY MOSLASHUVIShahrisabz Davlat Pedagogika Instituti talabasi  
Sharifjonova Fayoza Shuhrat qizi**Abstract**

Ushbu maqolada rivojlanishida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ularni ijtimoiy moslashuvi haqida so'z yuritilgan.

**Keywords:** garanglar, yaxshi eshitmaydigan, ko'rlar, ko'zi xira ko'radiganlar, tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar, oligofrenpedagoglar,

Kamol topishda kamchiligi bor bolalarni kamchiligini o'z vaqtida bilish, kasalini davolash, pedagogik ta'sir ko'rsatish, muayyan ijtimoiy natijalarga erishish imkonini beradi hamda bu bolalarni kamol topishini ta'minlaydi, ularni maktabda beradigan bilimlarni o'zlashtirib olishga, so'ngra esa jamiyatda shuning foydali a'zolari bo'lib etishishga yordam beradi.

Fan-texnika yutuqlarini hayotga tadbiq etish asosida turli xil yuqumli kasalliklar umuman tugatildi. Barcha maxsus maktablar, maktab-internatlar, maxsus bog'chalar, butunlay davlat ta'minotiga o'tkazildi.

Nuqsonli bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan muassasalar tarmoqlari sobiq sho'ro hududida ayniqsa, 1920-yillardan keyin jadal sur'atda rivojlandi. Ko'r, kar, aqli zaiflar uchun maxsus, alohida maktablar ochila boshlandi. Maxsus o'quv rejalar, dasturlar, darsliklar, uslubiy adabiyotlar yaratildi. Aqliy va jismoniy rivojlanishida kamchiliklari bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ishga joylashtirish haqidagi qaror 1975-yilda qabul qilingandan keyin, turli nuqsonli bolalarga bo'lgan munosabat bir muncha kuchaydi. Nuqsonli bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan yordamchi maktablar ommaviy maktablar singari yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularni jamiyatning foydali kishisi qilib etishtirishga xizmat qiladi. L.S.Vigotskiyning 1924-yilda aytgan optimistik bashorati nazariyada real ekanligini hozir nuqsonli bolalar sohasida erishilgan yutuqlar ham ko'rsatib turibdi.

“Ehtimol, insoniyat ertami-kechmi ko'rlik, karlik, aqli zaiflikni engadi. Ammo ularni biologik va tibbiyot tomonidan ko'ra, ijtimoiy va pedagogik tomondan ancha ilgari engadi”, - deb ta'kidlagan edi.

Nuqsonli bolalarning atroflicha rivojlanishida ijtimoiy ta'lim-tarbiya nihoyatda katta ahamiyatga ega. Yunesko ma'lumotlariga ko'ra nuqsonlilarning uchdan bir qismigina maxsus ta'lim-tarbiya jalb qilingan. Nuqsonli bolalarning ta'lim-tarbiyasidagi asosiy qiyinchilik nuqsonni aniqlashdan iborat. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, 0-2 yoshda 15,2%, maktabgacha yoshda 17,7%, kichik maktab yoshida esa 49,6% nuqsonli bolalar aniqlanar ekan. Shundan ko'rinib turibdiki, 10 yoshli bolalar orasida ham 20% ga yaqin nuqsonlilar uchrar ekan. Buning sabablaridan biri diagnostik ishlarning takomillashganligi, etarli,

ishonchli psixologik-pedagogik metodikalarning etishmasligidir.

Nuqsonli bolalarga ijtimoiy ta`lim-tarbiya berish ishlari respublikamizda keyingi 20 yil ichida bir muncha takomillashdi. Xalq ta`lim qonunida ta`kidlashicha, “O`zining jismoniy va ruhiy nuqsonlari asosida umumta`lim maktablarida ta`lim-tarbiya olishga qodir bo`lmagan bolalar uchun maxsus umumta`lim maktablari va maktab-internatlari tashkil etiladi. Bu muassasalarda nuqsonli bolalar ta`lim-tarbiya olish va davolash bilan birga ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishlari uchun ham imkoniyat yaratiladi”.

Hozirgi kunda maxsus muassasalar o`zlarining yuzaga kelish, rivojlanish, takomillashishda ma`lum tarixiy yo`lni bosib o`tdi. 1930- yillardan boshlab turli joylarda 4-8 yoshli aqli zaif bolalar uchun bog`chalar, 8-15 yoshlilar uchun esa o`quv-ishlab chiqarish korxonalari tashkil etila boshlandi. Respublikamizda nuqsonlilarga yordam 3 yo`nalishda: xalq ta`limi, sog`liqni saqlash va ijtimoiy ta`minot vazirliklari orqali olib borilmoqda.

### XULOSA

Xalq ta`limi vazirligi qoshida aqli zaif bolalar uchun maxsus bog`chalar tashkil etilgan bo`lib, bu erga bolalar 4 yoshdan qabul qilinadilar. 7 yoshga to`lganda esa ular yordamchi maktablarga yuboriladi. Yordamchi maktab-internatlar, aqli zaif bolalar bog`chalarida barcha ta`lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshiruvchi, tashkil etuvchi o`qituvchi tarbiyachilar – oligofrenopedagoglar deb yuritiladi. Oligofrenopedagoglar o`qituvchi, tarbiyachi, psixolog, ilmiy bo`lim mudiri, tarbiyaviy ishlar bo`yicha direktor o`rinbosari, direktor vazifasida ishlashi mumkin. Oligofrenopedagoglar o`quvchilarni atroflicha pedagogik o`rganishi asosida butun ta`lim-tarbiya ishlarini rejalashtiradi, ularni jismoniy va ruhiy nuqsonlarini tuzatadi, harakat sistemalarini to`g`rilab boradi, bilish faoliyatlarini shakllantiradi, xulq-atvor normalarini tarbiyalab boradi.

Nuqsonli bolalar ta`lim-tarbiyasi bilan shug`ullanuvchi muassasalar tarmog`i nuqsonli bolalarni (ya`ni ko`r, kar, aqli zaif bolalarni) himoyalash, ularga ta`lim-tarbiya berish va ularning individual individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta`lim-tarbiyaning metodlarini ishlab chiqish hamda ularni jamiyatning foydali kishisi qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabr “Alohida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan bolalarga ta`lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to`g`risida”gi №-638-sonli Qarori.

3. Inklyuziv umumta'lim maktablari kamsituvchi munosabatlariga qarshi kurashish va jamoalarda qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, inklyuziv jamiyat qurish va barchaga ta'lim byerishning eng samarali vositasi sifatida Salamanka bayonoti. (Ispaniya), 1994-yil 7-10-iyun.
4. "Dakarskie ramki deystviy"- Senegal, 2000-yil 26-28-aprel
5. <http://www.ziyonet.uz/> , <http://www.pedagog.uz/>